

## BOSHLNG'ICH TA'LIMDA MILLIY DASTUR

*Avazova Marjona Qaxramon qizi*

*Toshkent kimyo xalqaro universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi*

*PRI-07 talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Boshlang'ich talimda o'qitish metodi milliy dasturning asosiy mohiyati. Bunda ta'linda bo'layotgan o'zgarishlar zamon talablariga mos, milliy va xalqaro talablarga javob bera oladigan o'quv dastur haqida.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich ta'lim, yutuqlarni baholash usullari, milliy dastur, omillar, ta'lim standartlari, oliy ta'lim.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim sohasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida.Milliy dasturda o'z aksini topgan.

**Asosiy qism:** Aynan hozirgi O'zbekiston bilan oldingi O'zbekistonni solishtira olmaymiz. Negaki, shu darajada tez taraqqiy topyaptiki, yurtimiz undagi yuksak o'zgarishlarning birini anglab ulgurmasimizdan keyin amalga oshirilmoqda. Ta'limga ham yetarlicha e'tibor qaratilib, ko`pgina yutuqlarga erishmoqdamiz. Shu jumladan, maktablar xususida to`xtalib, ulardan bugun aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi murakkab tuzilgani, nazariy bilimlar amaliyot bilan bog`lanmagani, o'quv dasturlarida uzviylik yo`qligi, darsliklarning mazmuni mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e`tirozlarga sabab bo'layotganligi, avvaldagisi ta`lim davlat ta'lim standartlari hamda

o`quv dasturlarida o`quvchilarni ta`limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash, erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo`naltirish masalasi e`tibordan chetda qolayotganini tanqid qildi. Shuning uchun chet eldan tajribali o`qituvchilar keng jalb qilindi va bиргаликда yangi milliy dasturni ishlab chiqishdi. Milliy o`quv dasturi-o`quv-me`yoriy hujjat bo`lib , o`quv reja va fanlarning o`quv dasturlari , o`qitish metodlari, baholash tartibini ishlab chiqildi. Milliy o`quv dasturi- har bir sinf bosqichi yakunida o`quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o`tishni va o`quvchi qanday natijalarni qo`lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushintirishda yo`nalish beruvchi hujjatdir.

Milliy o`quv dasturida quydagilar yetakchi o`rin tutadi:

-izchilllik,uzviylik uzlucksizlik,

-jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg`or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta`lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta`lim mazmunini jahon ta`lim standartlariga moslashtirish;

-ishlab chiqarish, fan va ta`lim integratsiyasini ta`minlash...

Dastur tarkibi 6 ta qismdan iborat:

1- umumiyo`rta ta`limning malaka talablari;

2-umumta`lim fanlarining konsepsiyalari;

3- umumiyo`rta ta`limning o`quv rejasi;

4-umumta`lim fanlarining o`quv dasturlari;

5- umumta`lim fanlarini o`qitish metodologiyasi;

6- baholash tizimi.

Ta`lim standartlari bu- umumiyo`rta, o`rta maxsus professional hamda oliy ta`lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.Keng qamrovli dastur bo`yicha yaratiladigan yangi darsliklar, o`qituvchilar uchun metodik qo`llanmalar, mashq daftarlari,o`quv- metodik materallar ta`limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarni qo`llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir. Milliy o`quv dasturi-amaldagi davlat ta`lim standarti, o`quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng

jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi asosida qanday yangilik va o'zgarishlar joriy etilmoqda? Oldingi o'quv dasturlari mazmuni asosan foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi. Endi o'quv mazmunining yarmi nazariya, yarmi amaliyotdan iborat bo'ladi va asosiy urg'u o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga beriladi. Ilgari o'quv dasturlarida baholash faqat eslab qolingan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variantiv o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini ham yaratildi.

**Xulosa:** Biz o'ylaymizki hozirgi ta'lim tizimi keng qamrovli deb, lekin aytishimiz joizki, Xalqaro talablarga javob beruchi milliy dastur maktablar uchun ham oliy ta'lim uchun ham yangilikdir bu juda foydali hamda ishonchli dastur bo'di deb faxirlanib aytalaman. Loyhamizda yuqori salohiyatli ekspertlar hamda olimlar ishtirokida amalga oshirilgan. Hattoki, UNICEF, USAID va boshqa xalqarotashkilotlarning maslahatchilari ishtirokida Milliy o'quv dasturlarining yaratilishi ta'limdagi yutuqlarimizni oshirishga xizmat qiladi. Yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar esa mamlakatning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sun farmoni va uning 1-ilovasi - // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Umumiyo o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va

ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2020.

3. Zamonaviy darsliklar qanday bo'lishi kerak? - // Elektron manba.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: <http://uza.uz/posts/208815>

**4. Milliy o'quv dasturi loyihalari, loyiha bo'yicha taqdimotlar.** - // Elektron manba. Respublika ta'lim markazi rasmiy telegram kanali: <https://t.me/edurtm.uz>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.

6. "Boshlang'ich ta'limning Milliy o'quv dasturi: mazmun-mohiyati, amaliyotga samarali joriy etish usullari" mavzusidagi o'quv seminari tashkil qilindi//2022 yil 3-fevral kuni Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi

7. Milliy o'quv dasturi loyihasi taqdim etildi//Pravda Vostoka.  
<https://yuz.uz/uz/news/milliy-oquiv-dasturi-loyihasi-taqdim-etildi>